<b>Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li</b>	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
<b>Raxmonova Aziza Tolibovna</b>	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan .....	1106
<b>Umarov Elshod G'ulom o'g'li</b>	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
<b>Yuldashov Elmurod Abduljalil o'g'li</b>	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана .....	1116
<b>Икромова Ханифа Одилевна</b>	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
<b>Kamalova Jamila</b>	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari .....	1125
<b>Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi .....	1131
<b>Ne'matov Oybek Ismatullayevich</b>	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития .....	1136
<b>Туйчиев Комилжон Лазизович</b>	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati .....	1143
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b>	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish .....	1146
<b>Umarov Abdulquddus Abdilxatovich</b>	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах .....	1151
<b>Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович</b>	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
<b>Усманова Дилфузахон Иброхимовна</b>	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities .....	1163
<b>Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li</b>	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
<b>Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich</b>	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
<b>Qilichev Umid Ibadullayevich</b>	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari .....	1181
<b>Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
<b>G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li</b>	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
<b>Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li</b>	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
<b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
<b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
<b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
<b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari.....	1232
<b>Rahmanov Ilxom Xurramovich</b>	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
<b>Рафиева Зарина Хусановна</b>	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
<b>Akhmedov Doniyorbek</b>	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
<b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production.....	1254
<b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
<b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....	1272
<b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
<b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
<b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
<b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
<b>Мансурова Севара Мансуровна</b>	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
<b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>	



# RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARINI HOLATI

**Umurzakova Dilnoza Egamberdiyevna**  
“Ipak yo'li” turizm va madaniy  
meros xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada muallifning raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida respublikamizda maktabgacha ta'lim xizmatlarini holati, tahlili, mamlakatimiz maktabgacha ta'lim xizmatlari shakllantirish va rivojlantirishda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim xizmatlarining istiqbollari va uni takomillashtirishga qaratilgan fikrlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim muassasalari, maktabgacha ta'lim xizmatlari, xizmat ko'rsatish, ta'lim xizmati, rivojlantirish, islohot, innovatsiya, takomillashtirish, samaradorlik, tizimli tahlil.

**Abstract:** This article develops the author's situation and analysis of preschool education services in our republic in the context of the transition to a digital economy, proposals and recommendations for the formation and development of preschool education services in our country. The prospects for preschool education services and ideas aimed at improving it are also given.

**Key words:** preschool educational institutions, preschool education services, service provision, educational services, development, reform, innovation, improvement, efficiency, system analysis.

**Аннотация:** В данной статье развиты авторская ситуация и анализ услуг дошкольного образования в нашей республике в условиях перехода к цифровой экономике, предложения и рекомендации по формированию и развитию услуг дошкольного образования в нашей стране. Также приведены перспективы услуги дошкольного образования и идеи, направленные на ее совершенствование.

**Ключевые слова:** дошкольные образовательные учреждения, услуги дошкольного образования, предоставление услуг, образовательная услуга, развитие, реформа, инновации, совершенствование, эффективность, системный анализ.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish bilan bog'liq jarayonlar jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Bu borada mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlab berish maqsadida "Taraqqiyot strategiyasi 2022-2026", "Yangi O'zbekiston strategiyasi", "Raqamli O'zbekiston-2030" kabi strategik dasturlar qabul qilingan bo'lib, nafaqat iqtisodiy o'sish orqali rivojlanishni ta'minlab berish, shuningdek, aholi turmush-darajasini yuksaltirish, aholini ish bilan bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlari va kasblarni shakllantirish, tadbirkorlik faoliyati, ta'lim xizmatlarini rivojlantirish hamda inson kapitalini shakllantirish kabi ustuvor maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgandir.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev "Taraqqiyot strategiyasi"ning 34-maqsadida "Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinlarini yaratish"<sup>[1]</sup>. deb ta'kidlab o'tganliklari mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini mavjud imkoniyatlarimiz, resurslarimiz va salohiyatimizdan kelib chiqib yanada rivojlantirish, YalMda xizmat ko'rsatish sohasini ulushini rivojlangan xorij mamlakatlar ko'rsatkichiga yetkazish hamda aholi bandligini ta'minlash strategik maqsadlarimizdan biri bo'lishini taqozo etmoqda.

Ayniqsa, hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish tarkibida bo'lgan maktabgacha ta'lim xizmatlarini rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish sohasini YalMda ulushini ortishiga munosib hissa qo'shishi mumkin. Bizga ma'lumki maktabgacha ta'lim xizmatlari ta'lim-tarbiya berishning boshlangich debochasi bo'lib, mamlakatimiz inson kapitali shakllanishiga poydevor sifatida ahamiyatli darjaga egadir. Shuningdek, maktabgacha ta'lim xizmatlari orqali ta'lim xizmatlari ko'rsatilib, ushbu xizmat sifati, miqdorini ko'tarish hozirgi davrning dolzarb va yechimi



ko'p muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Hukumatizmiz tomonidan yaratib berilgan iqtisodiy, moliyaviy, institutsional va tashkiliy ko'maklar sababli keying vaqtlarda maktabgacha ta'lim xizmatlari rivoj topyotganligini ko'rishimiz mumkin. Ammo mamlakatimiz chekka hududlaridagi maktab tarbiyalanuvchilariga shahar joylaridagidek imkoniyatlar yaratib berilmagan, shuningdek, chetki hududdagi maktabgacha ta'lim muassasalari (MTM) infratuzilmasi zamon talablaridek shakllanmaganligi, MTMda ta'lim-tarbiya beruvchi tarbiyachilar, boshqaruv sohasidagi xodimlar, pedagoglarning malaka darajasi yetishmasligi, soha mutaxassislari yetkazib berishda xorij davlatlaridan ortdaligimiz MTM xizmatlari rivojiga to'siq bo'lmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida maktabgacha ta'lim xizmatlari rivojlantirish, ta'lim xizmat ko'rsatish usullari, MTMning holati va rivojlantirish istiqbollari tadqiq etish bo'yicha V. Stiven Barnettning "Kompensatsion erda bolalik ta'limining afzalliklari" nomli ilmiy maqolasida klassik eksperiment va foyda-xarajat tahlilini o'z ichiga olgan uzoq muddatli ta'sirlar haqidagi tadqiqotlar olib borilgan. Kompensatsion erda bolalik ta'limi aql (IQ) testlari bilan yetarli darajada o'lchanmaydigan kognitiv qobiliyatlarga hissa qo'shish orqali uzoq muddatli akademik muvaffaqiyatni ta'minlashi asoslab berilgan. Shuningdek, ta'limdagi ijtimoiy-iqtisodiy natijalar, jumladan, bandlik, o'smirlik homiladorligi va ijtimoiy yordam ko'rsatish orqali maktabgacha ta'lim muassasalariga ta'sir etish jarayonlari o'rganilgan [3].

M. Q. Aytbayevaning "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini jihozlash: muammo va yechim" nomli ilmiy maqolasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini jihozlashda yuzaga kelayotgan muammolarni yechimini yechish bo'yicha ilmiy va nazariy takliflar, tavsiyalar berilgan. Shuningdek, ushbu taklif va tavsiyalar xorij tajribasi asosida jihozlash, tarbiyalanuvchilarga ta'lim berish yo'nalishlari keltirilgan bo'lib, ushbu tavsiyalar asosida amaliy xulosalar taklif etilgan [4].

N. B. Talapovaning "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyaviy ta'minlash tizimini takomillashtirish" nomli ilmiy maqolasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moliyaviy ta'minlash tizimini takomillashtirishning ob'yektiv zaruriyati ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Mamlakatimizda sohaga doir masalada amalga oshirilayotgan ishlar, maktabgacha ta'lim xizmatlarining mamlakat ta'lim tizimidagi o'rni, qamrov darajasi va holati tahlil qilingan [5].

E. E. Nabiyev, G.M.Xushiyevaning "MTT direktorlarini menejerlik faoliyatiga tayyorlash yo'nalishlari" nomli maqolasida MTT direktorlarini tayyorlash yo'nalishlari haqida umumiy fikrlar berilgan, shuningdek, boshqaruv faoliyati, funksiyalari va ta'lim tashkilotini boshqarish jarayonlari bilan bog'liq masalalari. holati tadqiq etilib taklif va tavsiyalar berilgan [6].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur "Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida maktabgacha ta'lim xizmatlarini holati" nomli ilmiy maqola muammosini tadqiqoti jarayonida statistik va iqtisodiy tahlil, qiyoslash, guruhlash, tanlab kuzatish hamda induksiya va deduksiya, analiz va sintez, monografik, tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiya, mantiqiy yondashuv kabi uslublardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni "bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki, ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda mamlakatga foyda keltiradi"[8]. Shu tufayli xizmatlar tarkibida ta'lim sohasiga katta ahamiyat berib kelinmoqda. "Rivojlangan mamlakatlarda YalM o'sishining asosiy qismi xizmatlar sohasiga to'g'ri keladi. Masalan, bugungi kunda xizmatlar sohasining YalMdagi ulushi AQShda 78 % ni, Yevropa mamlakatlarida 70 % dan ortiqni, Xitoyda 51,6 % ni tashkil qiladi. MDH davlatlarida ham bu ko'rsatkich yuqori. Masalan, Qozog'istonda 54,2 %, Belarusda 48,0%, O'zbekistonda 40,2%ni (2022 yilda) tashkil etgan" [9], shuningdek, YalMning bir qismi ta'lim sohasini rivojlantirish uchun yo'naltirilmoqda. Jumladan, AQShda yalpi ichki mahsulotning 6,6 %, Germaniyada 5,8 %, Rossiyada 3,6 % ni tashkil qilmoqda. Bunday sharoitda ta'lim tizimida xizmat ko'rsatish va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish natijasida oliy ta'lim muassasalari daromadlarini oshirish hamda ularning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Xususan, maktabgacha ta'lim xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha keyingi yillarda mamlakatimizda ijobiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan Qarorda "...nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish uchun 1412 ta davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimlar imzolanganligi" [2] maktabgacha ta'lim tizimiga keng e'tibor berilayotganini namoyon etadi. Shuningdek, o'tgan besh yil mobaynida maktabgacha ta'lim bilan 1,5 mln. nafar bolalarni qamrab olingan bo'lsa, bu 2017-yildagi ko'rsatkichdan ikki barobar ko'proqdir. Joriy yilning oxiriga



qadar qamrovni 65,5%ga yetkazish rejalashtirilgan. Maktabgacha ta'lim muassasalari (MTM) soni ham tobora ortib bormoqda. Agar 2017-yilda MTMlarning umumiy soni 5 mingta bo'lgan bo'lsa, hozirga kelib ularning soni 17 mingtadan ortganligi maktabgacha ta'lim xizmatlariga alohida e'tibor berilyotganligini ko'rishimiz mumkin.

Fikrimizcha, MTM xizmatlarini hozirgi holatini tahlil qilmay kelajak uchun strategic maqsadlar belgilay olmaymiz. Shu bois MTM xizmatlarini tashkil etish, ularning faoliyati, ko'rsatilgan xizmatlar sifatini tahlil qilishimizni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda MTM xizmatlarni tashkil etish jarayoni qonunlarda belgilangan tartiblarda amalga oshirilmogda. Bu borada mamlakatimizda MTM faoliyatini tashkil etish jarayonini uch bosqichga bo'lishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm: Maktabgacha ta'lim muassasalarining rivojlanish bosqichlari davri

1-rasm ma'lumotlaridan kelib chiqib MTMning mamlakatimizda rivojlanish bosqichlarini uchta davrga bo'lishimiz mumkin. Bular quyidagilar:

Birinchi bosqich – 1992-2005-yillarni o'zida qamrab olib bunda mamlakatimizda MTM faoliyatini tashkil etish bo'yicha dastlabki qonunlar takomillashtirildi, ularni faoliyati muvofiqlashtirildi, moliyalash manbalari sifatida asosan davlat byujeti belgilab berildi, ta'lim xizmat ko'rsatish shakli an'anaviy shaklda amalga oshirildi. Bunda MTM tarbiyalanuvchilari faqat maktab davrigacha bo'lgan vaqtga qadar savodxonligi oshirilishiga e'tibor berilishi bilan ajralib turgan. Shuningdek, MTMda ta'lim-tarbiya beruvchi tarbiyachilar nomutaxassislar nisbatan mutaxassislarga nisbatan ko'prog'ini tashkil etib xizmat ko'rsatish sifatiga ta'sir qilib kelgan. MTM mutaxassislarini malakasini oshiradigan, qayta tayyorlaydigan muassasalarning deyarli mavjud emasligi ta'lim xizmatlarini sifatiga ta'sir qilib kelganligi bilan ajralib turgan.

Ikkinchi bosqich – 2006-2016-yillar hisoblanib, bu o'n yillik MTM rivojlanish bosqichida bir qator islohotlar malga oshirildi. Xususan, MTM faoliyatini muvofiqlashtiruvchi qonunchilik bazasi yanada takomillashtirildi. MTM infratuzilmasi takomillashtirilib yangi MTMlar barbo etildi, mavjudlari qaytadan rekonstruksiya qilindi. MTM xodimlarini malakasini oshirish institutlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Moliyalashtirish maanbalariga homiylik, xalqaro kapitallar jalb etildi. Ta'lim-tarbiya berishning metodologiyasi qaytadan ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etilishi natijasida tarbiyalanuvchilar bilim-ko'nikma olish darajasi yanada yuksaltirildi.

Uchinchi bosqich – 2017-2022-yillarni o'zida qabram olib, qisqa vaqt ichida katta ishlar amalga oshirildi. 2017 yil ma'muriy-huquqiy baza yanada takomillashtirilib Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi, bu davrda 76 ta normative hujjatlar qabul qilindi, davlat xususiy sherikchilik dasturi qabul qilindi. Dasturga muvofiq 12488 ta bitim, 1444 ta DXSH, 11044 ta oilaviy MTM lar faoliyati yo'la qo'yildi. Davlat tomonidan 1,95 trln. so'm imtiyozli kredit ajratilib, 11269 ta yangi MTM lar faoliyati tashkil etildi. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkiloti davlat o'quv dasturi yaratildi, litsenziya olish tartibi 1 yildan 10 kunga qisqartirildi, imkoniyati cheklangan ota-onalarning farzandlari to'lovlardan ozod etildi, MTM faoliyatini moliyalashtirish manbalar soni oshirildi, MTM infratuzilmasida tub o'zgarishlar amalga oshirildi<sup>[5]</sup>. Shuningdek, MTM faoliyatida pedagog va hodimlar mutaxassisliklari tashkil etilib ta'lim berish xizmatlari sifat jihatdan yuksalishga erishildi. MTM faoliyatini boshqarish bo'yicha maxsus institute tashkil etilib, soha boshqaruv faoliyati yanada yaxshilandi, intraktiv xizmatlar tashkil etilib tarbiyalanuvchilarni milliy, vatanpoarvarlik ruhda tarbiyalash uslubiyati ishlab chiqildi.



Fikrimiz tasdig'i sifati tadqiqotlarimiz davomida o'rganishlar olib bordik. Xususan, davlatimizda uch yoshdan olti yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari qamrab olinishi 2013-yilda 18,8 % tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib 62,0 % ni tashkil etgan. Ammo bir yoshdan olti yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida qamrab olish bo'yicha tahlillarimizda mamlakatimizda olib borilgan oqilona islohotlar natijasida o'sish dinamikasini ko'rishimiz, Ammo hududlar bo'yicha teng taqsimlanmaganligi ko'rishimiz, shuningdek, uch yoshdan olti yoshgacha bo'lgan tarbiyalanuvchilarni qamrab olish darajasiga nisbatan past ko'rsatkichlarni ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

**1-jadval: Mamlakatimizda bir yoshdan olti yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan qamrab olinishi (%) <sup>[1]</sup>**

Hududlar	Yillar								
	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>14,4</b>	<b>15,3</b>	<b>15,5</b>	<b>17,3</b>	<b>17,0</b>	<b>21,0</b>	<b>26,3</b>	<b>27,3</b>	<b>29,4</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	13,6	15,8	16,4	17,1	20,0	25,2	36,5	40,3	40,3
Andijon	12,0	12,7	14,2	15,8	14,7	20,3	28,5	31,2	30,9
Buxoro	13,4	14,4	14,8	16,2	17,4	23,4	30,9	30,7	34,9
Jizzax	11,0	11,2	10,8	14,6	10,6	18,7	24,7	27,8	30,4
Qashqadaryo	6,7	7,2	7,3	12,0	12,0	10,7	14,2	16,1	17,5
Navoiy	17,3	17,5	17,8	19,6	21,3	23,0	28,9	30,1	35,6
Namangan	14,0	14,1	14,6	16,4	15,5	21,2	29,0	32,3	31,2
Samarqand	10,5	12,6	11,7	15,2	12,1	15,9	23,1	25,5	26,0
Surxondaryo	7,0	7,5	7,6	8,4	7,4	10,0	14,0	13,9	17,8
Sirdaryo	14,6	14,5	15,4	18,9	17,2	24,5	29,2	26,6	30,2
Toshkent	17,1	18,2	18,9	19,5	20,3	22,3	24,7	23,0	27,2
Farg'ona	16,9	17,0	17,0	17,9	18,3	25,2	28,9	30,1	33,8
Xorazm	9,2	9,8	9,6	10,0	14,7	20,5	24,4	25,4	32,2
Toshkent sh.	46,5	49,8	51,7	52,3	49,8	49,9	49,4	42,4	42,3

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlarini tahlil qilar ekanmiz bir yoshdan olti yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan qamrab olinishi 2013-yilda mamlakatimizda 14,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib 29,4 % ni tashkil etgan. O'tgan davrga nisbatan o'sish tendensiyasini ko'rishimiz mumkin, Ammo bu natijalar mamlakat maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari qamrovi bo'yicha past ko'rsatkich hisoblanadi. Shuningdek, hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahriga to'g'ri kelmoqda 2013-yilda 46,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilda 52,3% ni, 2021-yilga kelib 42,3% ko'rsatkichni ko'rsatmoqda. Bu hozirgi davrda Toshkent shahrida bir yoshdan olti yoshgacha bo'lgan bolalar sonining ko'payganini anglatmoqda. Shuningdek, bir yoshdan olti yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari yetishmasligini anglatmoqda. Jadval ma'lumotlari asosida eng past ko'rsatkich Qashqadaryo viloyatiga to'g'ri kelmoqda. Xususan, 2013-yilda 6,7 % ko'rsatkichni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib 17,5 % dinamikasini tashkil etmoqda. Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki Qashqadaryo viloyatida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari qamrov darajasi pastligi, shuningdek, MTMLarining yetishmasligi aholi sonining boshqa hududlarga nisbatan kamligini anglatmoqda. Ushbu jadval ma'lumotlaridan maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan amalga oshiriladigan dasturlar va islohotlar o'z samarasini bermoqda, Ammo hududlar kesimida ravon rivojlanmaganligini ko'rishimiz mumkin <sup>[9]</sup>. Shu bilan birgalikda mamlakatimizda uch yoshdan olti yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarini qamrov darajasi bo'yicha izchil dasturlar, islohotlar, huquqiy qo'llash mexanizmini bir yoshdan olti yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga ham qo'llash hamda alohida e'tibor berish maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining sifatli ta'lim-tarbiya olishda samara berishi mumkin.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki mamlakatimizda maktabgacha ta'lim xizmatlarini samarali tashkil etish uchun MTMlarni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiy bog'chalarni guruhli tizimini tashkil etish, davlat MTMlarni moddiy texnik bazasini shakllantirish, MTMlarni modernizatsiya qilish, malakali kadrlarni jalb qilish, faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachi-xodimlarni zamon talablariga mos holda malakasini oshirish, ta'lim-tarbiya berishni "O'zbekona" modelini ishlab chiqish, bunda, milliy urf-odatlarimiz, diniy qarashlarimizdan kelib chiqib maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini vatanparvar shaxs sifatida shakllanishida xizmat qiladigan omillarni hisobga olgan holda tarbiya berishni shakllantirishimiz lozim. Ushbu jarayonlarni tatbiq etish mamlakatimiz yoshlarini komil inson sifatida ulg'ayishi hamda mamlakatimiz rivojiga hissa qo'shishadigan kadrlar yetishib chiqishida alohida ahamiyat kasb etadi <sup>[6]</sup>.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalarni berdik:

*Birinchidan*, raqamli iqtisodiyoti sharoitida MTM faoliyatini rivojlantirish maqsadida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishga qo'yiladigan amaldagi davlat talablarini qayta ko'rib chiqish, rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida shakllantirilishi lozim bo'lgan bilimlar, ko'nikma va mahoratlarni "milliy" an'analarga muvofiq ishlab chiqish hamda takomillashtirish;

*Ikkinchidan*, MTMda ta'lim-tarbiya berish xizmatlarini shakllantirishda intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, ta'lim xizmatlari ko'rsatishni yangicha "zamonaviy-intellektual-vatanparvarlik" modeliga asoslangan usullarini joriy etishni;

*Uchinchidan*, MTM faoliyatini rivojlantirish maqsadida sohani moliyalashtirish ob'yektlar faoliyatini davlat tomonidan dotatsiyalash, soliq imtiyozlari berish hamda bojxona imtiyozlari orqali faoliyatini yanada rivojlantirish;

*To'rtinchidan*, qishloq, mahalla, pasyolka, kichik shaharlar hamda katta shaharlarda yashash hududlarida raqamli texnologiyalarni MTM faoliyatiga tatbiq etish, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, "kraudfanding" raqamli platformasi orqali hayriya mablag'lari asosida yangi turdagi MTMlarni qurish, mavjud MTMlarni modernizatsiya qilish hamda faoliyat ko'rsatayotgan MTMlarni o'quv qurollari, zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash.

Ushbu taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy yetilishi orqali MTM faoliyati rivojlantirishimiz, mamlakatimiz rivojlanishi uchun xizmat qiladigan vatanparvar insonlarni yetishib chiqishi, yangi ish o'rinlarini yaratishda hamda bobolarimizdek buyuk insonlarni shakllanishida muhim hissa qo'shgan bo'lar edi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2707-sonli Qarori. 2016-yil 29-dekabr. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-apreldagi "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5071-son Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Mirziyoyev Sh. M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" -T.:—O'zbekiston, 2021. 23-bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4312-son Qarori. Toshkent sh., 2019-yil 8-may. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. M. Q. Aytbayevaning "Maktabgacha ta'lim tas'khilolarini jihozlash: muammo va yechim" Applied Sciences and Yeduction Hosted from Berlin, Germany. <https://conferencea.org> August 30th 2022
6. N. B. Talapovaning "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyaviy ta'minlash tizimini takomillashtirish" SCHOLAR ISSN: 2181-4147 VOLUME 1 | ISSUE 25 |. <https://t.me/openscholar> Multidisciplinary Scientific Journal September, 2023
7. E.E.Nabiyev, G.M.Xushiyevaning "MTT direktorlarini menejerlik faoliyatiga tayyorlash yo'nalishlari" Maktabgacha va maktab ta'limi ilmiy jurnali. 2023-yil, oktyabr, №1-son
8. D.E.Umurzakova "Maktabgacha ta'lim xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribasi" "IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali. № 6(8) 2022
9. S.B.Bobokulov. Diversifying the service field under digitalization. American Journal of Interdisciplinary Research and Development ISSN Online: <https://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/429>
10. <https://mpe.uz/post-detail/posts/news/2301>
11. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.